IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “NUKATUL E’ROB FIL G’ORIB E’ROB FIL QUR’ONIL KARIM” ASARI TURLI SOHALARDAGI NODIR MANBAA

Abzalova Farida Ravshanovna
Xadichai Kubro ayol-qizlar o’rta maxsus islom ta’lim muassasasi o’qituvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Nukatul e’rob fil g’orib e’rob fil qur’onil karim” asari turli sohalardagi nodir manbaa haqida so`z yuritilgan.
Kalit so`zlar
Samimiylik, tinchlik va bag‘rikenglik, alloma, sura, Fotiha, yosh avlod tarbiyasi, hayot – mamot masalasi, tarbiya.
Аннотация
В данной статье труд Махмуда Замахшари «Нукатуль э'роб фил гориб эроб фил Коранил Карим» представляет собой редкий источник в различных областях.
Ключевые слова
Искренность, мир и толерантность, аллама, сура, Фатиха, воспитание молодого поколения, вопрос жизни и смерти, образование.
Annotation
In this article, Mahmoud Zamakhshari's work "Nukatul e'rob fil ghorib erob fil Qur'anil Karim" is a rare source in various fields.
Key words
Sincerity, peace and tolerance, allama, sura, Fatiha, education of the young generation, the issue of life and death, education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining beshta ustuvor yo‘nalishdagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ta’lim sohasini rivojlantirishdagi barcha tashabbuslari muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidlash lozim. Mazkur hujjatning beshinchi yo‘nalishi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, unda qadimda va yaqin o‘tmishdagi buyuk ajdodlarning ilmiy merosini o‘rganish samimiylik, tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga, yoshlar o‘rtasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalarining oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi belgilab qo‘yilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa xalq shuncha yashaydi”,-deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”[1].

Darhaqiqat, tarbiya har davr uchun o’ta muhim ahamiyat kasb etadi. Farzand tarbiyasi va ularning imini oshirishda mutafakkirlarimizning asarlarini o’rganish katta rol o’ynaydi. Shunday olimlarimizdan biri Mahmud Az-Zamaxshariydir.

Az-zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o’lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

mehr bilan “Ustoz ul-arab va ajam” (“Arab va g’oyri arablar ustozi”), “Faxru Xvorazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharafli nomlar bilan ataganlar [2].

“Nukatul e’rob fil g’arib e’rob fil Qur’onil Karim” asari qo’lyozma holatda bo’lib Zamaxshariy uni “Nukatul e’rob fiy g’aribil e’rob” nomi bilan atagan. Tarjima va tabaqot olimlarining ba’zilari o’zlarining kitoblarida bu nomga “Fiy Qur’onil karim” iborasini qo’shganlar.

“Nukat” “Nukta” so’zning ko’plik shakli bo’lib lug’otlarda kelganidek, oq narsadagi har bir qora nuqta yoki qora nasadagi har bir oq nuqtadir. Umuman “nukta” degani biror “bir narsaning nozik jihati” degan ma’noni anglatadi. Kalomning nuktasi deganda uning nozik jihatlari, sirlari, latif tamonlarini ochish orqali undan ko’zlangan asl maqsad bayon qilib berilishi tushuniladi. Zamaxshariy bu asarda Qur’oni karimdagi ayrim suralarning o’ziga xos nozik jihatlarini ochib bergan.

Kitobning tuzilishiga kelsak olim uni suralar nomi bilan ataluvchi boblarga bo’lib chiqqanini ko’rishimiz mumkin. Asar “Fotiha” surasidan boshlanib, so’ng “Baqara” surasi so’ng “Oli Imron” surasi kabi tartib bilan izohlanadi. “Ixlos” surasi bilan asar tugallanadi. Lekin alloma ushbu asarida Qur’oni karimdagi to’liq 114 ta surani barchasini tatqiq etmagan. Modomiki asarda 68 ta bob mavjud ekan demak, alloma 68 ta sura ustida ish olib brogan. Qolgan 64 sura esa kitobga kiritilmagan. Az-Zamaxshariy suralarni tanlashda ularning grammatik jihatidan nozik jihatlari ko’proq bo’lganlarini tanlab olgan [3].

Asarning yozilish uslubiga kelsak, Zamaxshariy asarni yoritishni ta’limiy uslubini tanlaydi. Dastlab o’quvchiga savol bilan murojaat qiladi. So’ng savolga o’zi javob beradi. Shu tariqa kitobni suhbat shaklida ommaga taqdim etadi. Bu narsa kitobning ilmiy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bu asar nafaqar tafsir ilmini balki nahv, sarf va balog’at imlarini o’z ichiga qamrab olgan nodir manbalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-kitob. – T.: O‘zbekiston,2017. –B. 504-505
2. Ma’naviyat yulduzlari. M. Xayrullayev -T oshkent.: A.Qodiriy. –B. 137
3. “Nukatul e’rob fil g’orib e’rob fil Qur’onil Karim”. – Qohira: “Dorul Ma’orif” nashriyoti –B. 32

WORDLY KNOWLEDGE